

“Kelajak soati” 1-mavzu

“Kelajak soati” darsining 1-4 sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi:

1-mavzu: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun”

Dars maqsadi: Umumiy maqsad:

Annotatsiya: “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun” g‘oyasi (shiori), 1-sentabr Davlat mustaqilligi kuni, Yangi O‘zbekiston islohotlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Vatan, millat va xalq haqidagi dastlabki ijtimoiy-ma‘naviy tasavvurlarni shakllantirish, o‘z oilasi, maktabi va mahallasi orqali Vatanga muhabbat, elga hurmat, xalqqa foydali bo‘lish hissini uyg‘otish. Prezident Shavkat Mirziyoyevning vatan, millat va xalq haqidagi fikrlarini bola tilida tushuntirish.

🎯 Aniq maqsadlar:

1. O‘quvchilarda Vatan tushunchasini hissiy, obrazli, hayotiy misollar orqali ongli ravishda tushuntirish.
 2. Milliy qadriyatlar (til, bayroq, kiyim, urf-odat) bilan tanishtirish va ularni tan olishga rag‘batlantirish.
 3. Bolani o‘z shaxsiy harakati orqali Vataniga foydali bo‘lish mumkinligiga ishonch hosil qilishga yo‘naltirish.
Masalan: sinfni toza saqlash, kichik do‘stiga yordam berish, darsni yaxshi o‘zlashtirish va hokazo.
 4. Oilaviy qadriyatlar — ota-ona, bobo-buvi, ustoz kabi shaxslar orqali Vatanga muhabbat hissini kuchaytirish.
 5. O‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish: “Men ham yurtimga foydali inson bo‘laman” degan niyatni shakllantirish.
-

🗣️ **Asosiy g'oyalar:** O'quvchi o'z maktabi, uyi, mahallasi, oilasi orqali Vatanni his qiladi va sevadi. O'zbek tili, kiyimi, urf-odati, madaniyati va tarixi – bular millatni anglatadi. Ustozlar, qo'shnilar, do'stlar, katta-kichik – barchasi xalqimizning bir bo'lagi. Men kichikman, lekin foydali bo'lishim mumkin. Bolalar oddiy, lekin yurakdan qilgan harakati bilan ham Vatanga xizmat qiladi.

Har bir bola – Yangi O'zbekistonning kelajagi Prezident Sh.M. Mirziyoyev aytganidek: **“Yurtimiz kelajagi siz, aziz farzandlarimiz qo'lida.”**

📖 *“Men yaxshi inson bo'lsam, O'zbekiston ham go'zal bo'ladi.*

☒ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. Aqliy va tushunchaviy darajada:

- Bola **“Vatan”, “millat”, “xalq”** so'zlarini farqlab ayta oladi.
- O'z maktabi, oilasi, mahallasi orqali Vatanni qanday anglashi haqida so'zlay oladi.
- Bayroq, gerb, til kabi **davlat ramzlariga nisbatan hurmatli munosabat** shakllanadi.

2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- O'z yurti bilan faxrlanish, **milliy g'urur** tuyg'usi shakllanadi.
- Ota-ona, ustoz va mahalla kattalariga nisbatan **mehr-muhabbat** va **hurmat** ortadi.
- Bolaning ichki “men ham foydali bo'lishim mumkin” degan **ishtirok hissi** paydo bo'ladi.

3. Amaliy ko'nikmalarda:

- Bola kichik ijobiy xatti-harakatlarni (darsga vaqtida kelish, tozalikka rioya qilish, o'rtoqqa yordam berish) **Vatanga xizmat** deb tushunishni boshlaydi.
- O'z kundalik hayotidagi harakatlarini **mazmunli qadriyat sifatida** ko'ra oladi.

4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Sinfda ijobiy muhit shakllanadi: o‘zaro yordam, hurmat, birdamlik.
- Bolaning **fuqarolik o‘zini anglashiga ilk qadam** qo‘yiladi.
- O‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida **qadriyatlarga asoslangan muloqot** paydo bo‘ladi.

 **Metapredmet:** bu ta’limda o‘quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo‘llay oladigan umumiy ko‘nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Masalan, “Vatan uchun, xalq uchun, millat uchun” darsida:

- Bola Vatan haqida **qo‘shiq va maqol aytadi** (adabiyot fani),
- Film tomosha qilib, **taassurotini aytadi** (san’at),
- So‘ngra bu harakatlar haqida **fikr bildiradi** (muloqot), — bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir**.

 **Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi milliy tarbiya instituti xodimlari. www.milliytarbiya.uz

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, zamona qahramoni yoki mashhur kishilar intervyulari, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami:

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;

- taqdimot.

❑ Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi – o'quvchilarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo'lgan motivatsiya mashg'ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko'rish va muhokama qilishga asoslanadi.

2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o'quvchilar darsning asosiy ma'nolarini tushunish va ochib berishga yo'naltiriladi. Shu maqsadda o'quvchilarga tasviriy materialni tahlil qilish, videolarni ko'rish va bilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

3-qism. Yakuniy

Dars g'oyalarini umumlashtirish, mashg'ulotga yakun yasash.

Dars ssenariysi

Dastlabki 10 daqiqada mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etiladi (prezentatsiya).

❑ 1. KIRISH. Motivatsion qism(10 daqiqa)



O'qituvchi: Aziz bolajonlar, mana hozirgina hammamiz “Birinch qo'ng'iroq” tadbirida hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning sizlarga va o'qituvchi-murabbiylarga yo'llagan tabrigini tingladik. Prezidentimiz tabriklarida alohida ta'kidlab o'tganlaridek: **“maktab – bu mo'jiza, kitob, ustozlar o'tadigan har bir dars – beqiyos xazinadir!”**

president.uz

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, barchangizni Vatanimizning Mustaqillik bayrami bilan tabriklayman! Xabaringiz bor, poytaxtimiz Toshkent shahridagi Yangi O'zbekiston bog'ida Mustaqilligimizning 34 yillik bayrami katta tantana qilindi. Shu bayramda hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hammamizni bayram bilan tabrikladilar. Keling hozir birgalikda Prezidentimiz so'zlariga quloq tutamiz!

Dars mashg'uloti boshida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar haqidagi fikrlari aks etgan rolik qo'yib beriladi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, mana hozirgina ko'rganimizdek, hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev sizlarga katta ishonch bildirdilar. Biz hamisha mana shu ishonchga munosib bo'lishimiz kerak. Buning uchun

birinchi navbatda bilim olshimiz, oilamizni, Vatanimizni yaxshi ko'rishimiz zarur! Xo'pmi?

O'quvchilar: ha-a-a

O'qituvchi: Bolajonlar, tasavvur qiling: sizning o'z koptokingiz bor.

Koptokingizni yaxshi ko'rasiz, maza qilib o'ynaysiz. Lekin bir kuni bir kishi kelib sizga:

“Bu to'p endi meniki! Sen mendan so'rab o'ynaysan! Bersam, o'ynaysan, bermasam, o'ynamaysan. Agar aytganimni qilmasang, to'pni olib qo'yaman. Bildingmi?!” dedi.

Siz qo'rqib, xo'p, dedingiz. Endi siz o'z koptokingizni har kuni ko'rasiz, lekin birovdan ruxsat so'rab, bersa, o'ynaysiz. Bermasa, boshqalar uni qanday o'ynayotganini tomosha qilib o'tirasiz. Xafa bo'lasiz.

Bolajonlar! Bu juda yomon holat-a?

O'quvchilar: ha-a-a

O'qituvchi: Endi yana bitta misol aytaman.

Bir kuni dadangiz sizga yangi, chiroyli koptok sovg'a qildi.

U to'p – faqat sizniki! Endi siz uni hech kimdan so'ramay o'ynayverasiz. Buning uchun hech kim sizni urishmaydi, so'kmaydi. Xohlagan do'stingizni o'yinga qo'shasiz.

Mana shu – mustaqillik! Ya'ni: o'z yurtigingizda, o'z uyingizda, hohlagan o'yinlarni o'z xohishingiz bilan o'ynab, o'zingiz xohlagandek yashash bu - mustaqillik!

Mustaqillik zo'r ekanmi?

O'quvchilar: ha-a-a

O'qituvchi: Biz kecha mana shunday zo'r bayramni, jonajon vatanimizning mustaqillik bayramini nishonladik. Hurmatli Prezidentimiz hammamizni mustaqillik bayrami bilan tabrikladi. Ko'rdingizmi?

O'quvchilar: ha-a-a

O'qituvchi: Aziz bolajonlar! Bilasizlarmi? **Bizning Prezidentimiz kim?**

O'quvchilar: Shavkat Mirziyoyev!

O'qituvchi: Mana, siz har kuni toza-ozoda, sevimli maktabingizga kelasiz. Maktab sizga yangi kitoblar beradi. O'qiysiz, bilim olasiz, kompyuterni o'rganasiz. Sizga bu sharoitlarni kim tashkil qilib beryapti? Shuni o'ylab ko'rganmisiz? Bu ishlar uchun harakat qilayotgan kishi – **bizning Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevdir.**

(birinchi sinflardan so'raladi: maktabga kelib Prezident sovg'asini oldingizmi? Sizlarga yoqdimi?)

Prezidentimiz sizlarni juda yaxshi ko'radilar. Shuning uchun chiroyli bog'chalar, maktablar qurib berishadi. Prezidentimizni siz ham yaxshi ko'rasizmi?

O'quvchilar: ha-a-a

Prezidentimiz va xalqimiz sizlar yaxshi o'qib mustaqil O'zbekistonimizni yanada zo'r davlatga aylantirishingizni xohlashadi. Qani bolajonlar hammamiz o'rnimizdan turib birgalikda **"Men mustaqil O'zbekiston farzandiman!" deb aytamiz.**

Qani, o'rnimizdan turib, hammamiz birgalikda aytib ko'raylikchi. Boshladik:

O'quvchilar: Men mustaqil O'zbekiston farzandiman!

O'qituvchi: Balandroq aytamiz:

O'quvchilar: Men mustaqil O'zbekiston farzandiman!

O'qituvchi: Yanada jarangdor, ishonch, bilan aytamiz:

O'quvchilar: Men mustaqil O'zbekiston farzandiman!

O'qituvchi: Barkalla! Hozir hammamiz maza qilib aytgan mana shu gapni hech qachon esingizdan chiqarmang, xo'pmi?

O'quvchilar: Xo'-o'-o'-p!

O'qituvchi: Barakalla. Olqishlar!

(Hamma birga qarsak chalishadi).

O'qituvchi: Bolajonlar, Yangi O'zbekiston bog'ida "Mustaqillik monamenti" degan joy bor. U yerda davlatimiz tarixi, buyuk bobolarimiz haqida juda ko'p ma'lumotlar bor. Hozir o'sha joyni O'zbekiston xalq artisti, sevimli aktrisamiz Dilorom Karimova hamda tengdoshlaringiz hamrohligida tomosha qilamiz.

Yangi O'zbekiston bog'idagi "Mustaqillik monamenti" yonida O'zbekiston xalq artisti Dilorom Karimova mustaqillik haqidagi fikrlarini bildirgan videolavha namoyish etiladi. 2 daqiqa.

O'qituvchi: Bolajonlar, Dilorom opani tanidingizmi? Televizorda juda ko'p filmlarda zo'r rollar o'ynaganini ko'rgansiz-a? Dilorom opaning mustaqillik haqidagi gaplari esingizda qoldimi?

O'quvchilar: ha-a-a

O'qituvchi: barakalla!

ASOSIY QISM. Mustaqillikning qadrini tushuntirish. (25 daqiqa)

O'qituvchi: Qadrli bolajonlar, hozir siz ko'rgan Yangi O'zbekiston bog'i, siz o'qiyotgan maktablar oson qurilmagan. Mustaqil davlat qurish oson bo'lmagan. Yurtimiz chiroyli, boyliklari ko'p bo'lgani uchun yomon niyatdagi bosqinchilar doim bizni yurtimizni tortib olishga harakat qilishgan. Vatanimizni yaxshi ko'rgan bobolarimiz, otalarimiz hatto onalarimiz ham "biz yurtimizni hech kimga berib qo'ymaymiz!" deb jang qilishgan. Bosqinchilarga qarshi kurashishgan. Bu yo'lda o'z jonlarini ham ayashmagan.

Keling hozir birgalikda yurtimizni dushmanlardan himoya qilgan jasur momimiz To'maris hamda mard bobomiz Shiroq haqidagi filmni tomosha qilamiz.

Sun'iy intellekt yordamida tayyorlangan To'maris va Shiroq haqidagi kichik film namoyish etiladi 3-4 daqiqa.

O'qituvchi: Bolajonlar, To'maris momimizning, Shiroq bobomizning jasurligi sizlarga yoqdimi? Ko'rdingizmi, ular vatanimizni dushmanlardan himoya qilish uchun o'z jonlarini ayamadilar. Qani kim aytadi ularning qaysi ishi sizlarga yoqdi?

O'quvchilar o'z taassurotlarni aytib beradilar. O'qituvchi ularni vatanni himoya qilish, mardlik, jasurlik kabi tushunchalarga yo'naltirib turadi.

O'qituvchi: Mana shunday jasur bobolarimizga munosib nabira bo'lish uchun Sizlar yaxshi o'qishingiz kerak. Yangi O'zbekistonni yaxshi ko'rsangiz – jasur bobolarimiz mehnatini, mustaqilligimizni qadrlagan bo'lasiz! Mehribon Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: "Ertangi O'zbekiston – bugungi farzandlar qo'lida!", sizlarning qo'lingizda. **Chunki siz – MUSTAQIL O'ZBEKISTON farzandisiz!**

Nega mustaqillikni har kuni mustahkamlash kerak?

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, agar gul eksangizu uni sug'orib turmasangiz nima bo'ladi? Gul so'lib qoladimi?

O'quvchilar: Ha-a-a.

O'qituvchi: Gul so'lib qolmasligi uchun nima qilish kerak?

O'quvchilar: Suv quyib turish kerak.

O'qituvchi: Juda to'g'ri aytdingiz. Mustaqillik ham shunday. Har kuni uni mustahkam bo'lishi uchun yaxshi ishlar qilishimiz zarur. Yaxshi ishlar, deganda nimalarni tushunamiz?

O'quvchilar javobi tinglanadi.

O'qituvchi: Barakalla bolalar, sizlar aytgan javoblarga qo'shimcha qilib men ham bir nechta misol aytaman. Siz u ishlarni qilasizmi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: Sinfda qog'oz bo'lagi yerda yotibdi. Sinfdoshlaringiz uni ko'rmayapti. Siz uni ko'rib, olib, axlat qutisiga tashladingiz.

Yoningizda o'tirgan kimdir: "Olmasang ham bo'lardi-ku...", dedi.

Siz esa unga: **"Bu mening maktabim. U toza bo'lishi kerak!", dedingiz.** Mana shu kichik ishingiz ham Vatanni toza-ozoda tutish, mustaqillikka xizmatigingiz bo'ladi.

Yana bir misol, onangiz sizga "Suv keltirib ber, bolam", dedi. Siz "keyinroq" demadingiz. Chopqillab borib, suv keltirdingiz. Siz ota-onangizni xursand qildingiz, – demak, Vatan uchun g'amxo'r o'g'il-qiz bo'lib ulg'ayasiz!

Siz hali kichiksiz, lekin Vatan uchun javobgarsiz!

Aziz bolajonlar!

Ba'zi bolalar: "Biz hali bolamiz. Katta bo'lsak, Vatanga xizmat qilamiz", deb o'ylashadi. Shuni bilib olinglarki: Yurtga, Vatanga xizmat qilishda katta-kichik bo'lmaydi. Hamma, har kuni Vatanga, atrofdagi odamlarga ish qilishi mumkin. Demak, siz – 1- (2-, 3-, 4-) sinf o'quvchisi ham har kuni, kichik-kichik, yaxshi ishlar qilishingiz mumkin.

Hozir ichingizda "Biz nima qilishimiz kerak?", deb o'ylayapsizlarmi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: Masalan, maktab kutubxonasiga yangi kitoblar keldi. Ba'zi bolalar buni bilmadi. Bilsa ham kutubxonaga kirib, ularni ochib ko'rmadi. Siz kutubxonaga borib, odob bilan salomlashdingiz. Yangi kitoblarni so'radingiz.

Qo'lingizga olib, ehtiyotkorlik bilan varaqladingiz va kutubxonachi opaga: "Opajon. Menga mana bu kitobni bering. Men bu kitobni ehtiyot qilib o'qiyman.

O'qiganimni sinfdoshlarimga aytib beraman", dedingiz. Kutubxonachi opa xursand bo'lib, rahmat aytadi. Chunki u Prezidentimizning "bolalarim ko'p kitob o'qisinlar", degan gaplarini yaxshi biladi. Siz ham bu ishingiz bilan Vatanga xizmat qilgan bo'lasiz.

Yana bir misol: Bir to'polonchi bola sinf devoriga chizdi. Siz buni ko'rib, unga: "o'rtoq, bu sinf – bizning uyimiz-ku. U chiroyli bo'lishi kerak. Nega chizding. O'rtoqjon, shuni o'chirib qo'ygin. Boshqa bunday qilmagin. Xo'pmi?", deyishingiz kerak.

Mana bu – sizning vatanni yaxshi ko'rishingiz bo'ladi.

"Men chetda turmayman, yaxshi ishga qo'shilaman", degan gap doim esingizda bo'lsin.

Masalan, o'qituvchingiz "Bolalar, kelinglar, "Bugun darsdan keyin maktabimizni obod qilamiz", degan taklifni aytdi. kimdir "Nimaga faqat biz obod qilamiz? Biz hali kichik bolalarmiz-ku. Katta sinfdagilar qilsin", dedi. Siz

esa, baklajkada suv olib, gullarga suv quydingiz. Do'stlaringizni ham "Kelinglar, birga gullarni sug'oramiz", deb chaqirdingiz. Siz faqat gapirmadingiz, yaxshi ish qildingiz.

Eslab qoling, bolajonlar:

- Agar siz maktabni toza saqlasangiz – bu Vatanga xizmat!
- Agar siz yaxshi o'qisangiz – bu Vatanga xizmat!
- Agar siz ota-onangizga yordam bersangiz – bu Vatanga xizmat!

Endi bolajonlar, aytingchi, sizlar qiladigan yana qanday ishlar Vatanga xizmat hisoblanadi. Qani boshlaydi.

4-5 nafar o'quvchi javobi tinglanadi va "Barakalla, bularning barchasi Vatanga xizmat" deya xulosa beriladi.

O'qituvchi: Barakalla, bolajonlar! Vatanimizga zo'r xizmat qilayotgan, O'zbekistonimiz nomini dunyoga mashhur qilayotgan aka-opalaringiz juda ko'p hozir ulardan biri, shaxmat bo'yicha jahon chempionlarini ham yutgan Nodirbek Abdusattorov gaplariga quloq tutamiz.

Bolalariga Nodirbek Abdusattorov haqidagi ma'lumotlar va uning fikrlari qo'yib beriladi.

O'qituvchi: Bolajonlar, sizlar ham Nodirbek akangizdek jahon chempioni bo'lishni istaysizmi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: unda bugundanoq o'zingiz yaxshi ko'rgan bir sport turini tanlab mashq qilishni boshlang. Agar hammangiz shaxmat o'ynashni o'rgansangiz sinf chempionatini o'tkazamiz, kelishdikmi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: Bizning sevimli **Vatanimiz**, buyuk **Millatimiz** va mehribon **Xalqimiz** bor.

1. Nimalarni bilish zarur?

- **Vatan** – bu siz yashaydigan yurt, siz o'qiydigan maktab, siz qadam bosgan tuproq.
- **Millat** – o'zbek xalqining tili, bayramlari, urf-odatlari, milliy qo'shiqlari, liboslari.
- **Xalq** – sizing ona-otangiz, ustozlaringiz, do'stlaringiz, mahalla, qishlog'ingizdagi har bir inson, u boshqa millat vakili ham bo'lsa ham o'zbekistonlik hisoblanadi.

Vatan haqida xalqimizda ko'plab maqollar bor. Keling, hozir birgalikda qiziq bir topshiriqni bajaramiz va xalq orasida vatan qanday qadrlanib kelinganini bilib olamiz.

“Maqollarni yig'ish” interaktiv topshirig'i.

Topshiriq mazmuni: o'quvchilar maqollarning qismlarini to'g'ri bog'lashlari kerak. O'qituvchi har bir keltirilgan maqolning ma'nosiga e'tibor qaratadi.

1. Bulbul chamanni sevar

Odam (vatanni)

2. Ona yurti – oltin ... (beshiging)

3. Vatani borning ... bor (baxti)

3. YAKUNIY QISM

O'qituvchi: Demak, Vatan – bu siz yashaydigan joy. Onangiz, otangiz, maktabingiz, do'stlaringiz, uylaringiz, daraxtlaringiz – hammasi Vatan! Keling hozir birgalikda **“Vatanjonim – Vatanim”** qo'shig'ini tinglab, keyin o'zimiz kuylaymiz. Diqqat bilan tinglang.

“Vatanjonim – Vatanim” P.Mo'min she'ri. D.Omonullayeva
musiqasi. [#karaoke](#)

Vatanjonim-Vatanim!

Ko'zim quvnab ko'rganim.

Istiqloldan kulganim,

O'zbekiston – gulshanim!

Bahra olib bag'ringdan,

Ulg'ayaman mehringdan.

Vatanjonim – Vatanim!

O'zbekiston – gulshanim!

Sen o'xshaysan onamga,

Maqtay butun olamga.

Vatanjonim – Vatanim!

O'zbekiston-gulshanim!

O'quvchilarga Ozodbek Nazarbekov ijrosidagi "Uyg'on, o'g'lim!" qo'shig'i qo'yib beriladi va karaoke tarzida birga kuylanadi.

O'qituvchi: Aziz bolajonlar! Qo'shiq sizlarga yoqdimi?

O'quvchilar: Ha-a-a

O'qituvchi: Hammamiz bu qo'shiqni yod olib, doim birgalikda kuylab yuramiz, xo'pmi?

O'quvchilar: Xo'-o'-o'p

O'qituvchi: Bulbul chamanni sevar, Odam Vatanni degan maqolni hammamiz takrorladik. Vatanni sevmok degani – **onaga yordam berish, ko'chani toza saqlash, kitob o'qish, do'stingni xafa qilmaslik, salom berish, o'zbek tilida go'zal gapirish** degani hamdir.

Har birimiz kichik ishimiz bilan Vatanimizga mehr ko'rsatamiz. Siz hali kichik bo'lishingiz mumkin, lekin yuragingiz katta bo'lsa, siz ham Vatanga foydali bo'lasiz.